



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 410 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash.....	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari.....	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri.....	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash.....	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish.....	346
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari.....	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar.....	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar.....	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash.....	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan.....	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	



IQTISODIY O'SISH SHAROITIDA TRANSPORT INFRATUZILMASI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Haydarov Jahongir Aktamovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Real iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: j.a.xaydarov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada transport infratuzilmasi holatining hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini aniqlashda iqtisodchi olimlarning turli yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Transport boshqa infratuzilma tarmoqlari qatori inson va jamiyat hayoti uchun zamin yaratadi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va tashqi iqtisodiy maqsadlarga erishishga yordam beradi. Shuning uchun mavjud transport infratuzilmasini rivojlantirish va optimallashtirish bugungi kun iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishini tanlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ilmiy yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: transport, transport infratuzilmasi, transport tizimi, transport kompleksi, mintaqaviy transport infratuzilmasi, transport yo'laklari, transport operatsiyalari.

Abstract: The article considers various approaches of economists and scientists to determine the impact of the state of transport infrastructure on the socio-economic development of regions. Transport, along with other infrastructure sectors, creates the basis for human and social life and also helps to achieve economic, social, political, and foreign economic goals. Therefore, the development and optimization of the existing transport infrastructure is one of the priority tasks of today's economy. Also, scientific approaches to choosing the direction of transport infrastructure development and making effective management decisions are highlighted.

Key words: transport, transport infrastructure, transport system, transport complex, regional transport infrastructure, transport corridors, transport operations.

Аннотация: В статье рассматриваются различные подходы экономистов и учёных к определению влияния состояния транспортной инфраструктуры на социально-экономическое развитие регионов. Транспорт, наряду с другими инфраструктурными секторами, создаёт основу жизнедеятельности человека и общества, а также способствует достижению экономических, социальных, политических и внешнеэкономических целей. Поэтому развитие и оптимизация существующей транспортной инфраструктуры являются одной из приоритетных задач современной экономики. Также освещаются научные подходы к выбору направлений развития транспортной инфраструктуры и принятию эффективных управленческих решений.

Ключевые слова: транспорт, транспортная инфраструктура, транспортная система, транспортный комплекс, региональная транспортная инфраструктура, транспортные коридоры, транспортные операции.

KIRISH

Ayni paytda dunyo, mamlakat va alohida hudud iqtisodiyoti o'zgarish va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish davrini boshdan kechirmoqda. Logistika zanjirlari o'zgarmoqda, transport yo'laklarining vektori o'zgarib bormoqda, transport infratuzilmasi esa har doim ham unga qo'yilayotgan talablarga javob bera olmayapti. Shu munosabat bilan yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish,



ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish loyihalarini amalga oshirish samaradorligi masalasi dolzarb bo'lib, transport infratuzilmasi rivojlanishining alohida hudud va alohida subyekt iqtisodiyotiga ta'siri masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston milliy mahsulotlarining mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlovchi transport yo'laklari infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, mahalliy mahsulotlar bozorlarini kengaytirish zarurati muqobil tranzit yo'laklarini shakllantirishni taqozo etmoqda. 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining 93-maqsadida [1] ta'kidlanganidek:

“Hamkor davlatlar bilan hamkorlikda va xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global muammolar bo'yicha mutanosib, uzluksiz muloqot olib borish, ular bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yetakchi davlatlar bilan turli darajadagi maslahatlashuvlar va keng ko'lamli maslahatlashuvlar o'tkazish, strategik darajada ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risida kelishuvlarga erishish” mavzusi mamlakatimizni xalqaro transport magistralari bilan bog'lash, transport mustaqilligini ta'minlash va transport aloqalarini diversifikatsiya qilishda alohida o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda transport infratuzilmasi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanib, mamlakat iqtisodiyotining samarali faoliyat yuritishini belgilovchi asosiy omillar orasida ustuvor o'rinlardan birini egallab turibdi. Uni yanada rivojlantirish va respublikaning jahon iqtisodiyotiga kirib borishida muhim shartlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda transport infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari – mamlakatning transportga qaramligi, moddiy-texnik bazaning jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgani, investitsiyalar cheklanganligi, faoliyat yuritish va boshqarishda bozor mexanizmining yetishmasligi kabi kamchiliklar bilan yuzma-yuz kelyapti.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport infratuzilmasi O'zbekiston hududlarini bir butunga birlashtiradi, transportning ishlashi uchun sharoit yaratadi va mamlakat milliy iqtisodiyotida asosiy rollardan birini o'ynaydi. Uning takomillashtirilishi turli darajadagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi, mehnat va moddiy resurslarning samarali harakatlanishini hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirishning nazariy va uslubiy muammolari V. Brakaglia, T. D'Alfonso, A. Nastasi, D. Sheng, Y. Van, A. Chjan [2], J. Marti-Henneberg [3] ilmiy asarlarida o'z aksini topganini aytib o'tish joiz. Shuningdek, transport infratuzilmasi konsepsiyasi M. A. Bajina, M. N. Baxtin, V. A. Blagin, Yu. N. Golskaya, A. M. Kudryavtsev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ham ko'rib chiqilgan [4–6, 8]. Biroq hozirgi kunga qadar, huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan, transport infratuzilmasining yagona ta'rifi taqdim etilmagan. Bundan tashqari, turli mintaqalarning transport infratuzilmasini ularning fazoviy rivojlanish maqsadlarida shakllantirish xususiyatlarini hisobga olish bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Masalan, V. V. Bobrova va L. Yu. Berejnaya chegara hududlarida transport infratuzilmasi shakllanishi masalalariga e'tibor qaratganlar [7].

E. A. Ilyina transport infratuzilmasining hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri haqida fikr bildiradi. Muallif o'z ishida mintaqada maishiy xizmatlar hajmining o'sishi, savdo, ta'lim va tarmoq ulanishining topologik ko'rsatkichlaridagi iqtisodiy samara, shuningdek, yo'l sharoitlarini yaxshilash natijasida qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy samara va markazlashuvning topologik ko'rsatkichlari o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan [9].

I. E. Gimadi, V. V. Dobrodey, N. A. Matushkinlar esa transport tarmog'ining yangi xomashyo va tabiiy resurslar manbalarini o'zlashtirishdagi ahamiyatini ta'kidlab, u iqtisodiyotning asosiy va xizmat ko'rsatish sohalarida umumiy xarajatlarni kamaytirishga, ijtimoiy muammolarni hal etishga va hududiy iqtisodiy kompleksni jahon tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam berishini bildiradilar. Shu bilan birga, olimlarning fikricha, transport infratuzilmasi hududlarning ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasiga, hudud iqtisodiyotining barcha elementlari va aholisining ish xususiyatlari hamda ehtiyojlariga mos kelishi kerak [10].

E. G. Efimova esa transport infratuzilmasini iqtisodiy va ijtimoiy makonni shakllantirishning asosiy omili deb hisoblaydi, chunki transport infratuzilmasi hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham makro darajada, ham alohida korxonalar darajasida kompleks ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, hududiy iqtisodiyotning rivojlanishi yuk va yo'lovchilar harakati uchun transport xizmatlariga talabning ortishiga olib keladi va bu jarayonda transport infratuzilmasi bilan hududiy iqtisodiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi namoyon bo'ladi [11].

Shunday qilib, iqtisodiyotda transport infratuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha umumiy fikr mavjud emas. Bir tomondan, transport kommunikatsiyalarining yuqori darajada rivojlanishi bilan tovar aylanmasining o'sishi kuzatiladi va tashishning iqtisodiy samaradorligi ortadi. Boshqa tomondan, hududning tegishli darajada qoplanishini ta'minlash uchun transportga investitsiyalar davlat tomonidan qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Bundan tashqari, ayrim hududlar obyektiv sabablarga ko'ra transport



tizimini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega emas. Transport infratuzilmasi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatining o'zaro ta'sirini aniqlashdagi murakkablik ushbu tushunchalarning ko'p qirraliligi, shuningdek, tahlil qilishda hisobga olinishi lozim bo'lgan turli omillar mavjudligi bilan bog'liq. Shubhasiz, transport iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir, ammo transport tizimining holatini zarur darajada ushlab turish katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasining holatini baholash va uni rivojlantirish yo'llarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Metodologiya transport infratuzilmasining mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va rivojlanish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda transport infratuzilmasi hududiy iqtisodiyotning tarkibiy elementi sifatida tizimli tahlil qilinib, u bilan bog'liq ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, logistika va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari bilan o'zaro aloqadorlik o'rganildi. Transport infratuzilmasining holati, funksional ko'rsatkichlari, investitsion faolligi va transport xizmatlari tuzilmasi Davlat statistika qo'mitasi, Transport vazirligi va boshqa ochiq manbalar asosida kompleks statistik tahlil orqali baholandi. Mintaqaviy solishtirma tahlil yordamida transport infratuzilmasi rivojlanishining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri O'zbekistonning turli hududlari misolida o'rganilib, mavjud nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashda soha mutaxassislarining fikrlariga asoslangan ekspert baholash usuli qo'llanilib, ustuvor investitsiya yo'nalishlari va resurslarni samarali taqsimlash mezonlari aniqlashtirildi. Mavjud infratuzilmaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar hamda tahdidlar SWOT-tahlil asosida baholanib, strategik rivojlanish yo'nalishlari shakllantirildi. Bundan tashqari, transport infratuzilmasi ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish indikatorlari (yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sektori ulushi va boshqalar) o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli regressiya modeli orqali baholandi. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar asosida grafik va jadvallar tuzilib, ularning natijalariga asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Xalqaro tajriba (xususan, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy kabi davlatlar) o'rganilib, ularning muvaffaqiyatli amaliyotlari asosida O'zbekiston uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaharlarning texnik infratuzilmasi va shahar transporti barqaror urbanizatsiya maqsadlari uchun muhim masalalar bo'lib, shahar hayoti sifati jihatidan hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shahar transporti tizimlari atrof-muhitga, shahar iqtisodiyotiga va ijtimoiy hayotga katta ta'sir ko'rsatadi. Transport tizimlari tomonidan taqdim etilayotgan qulaylik shaharlarning yashashga yaroqliligi bo'yicha asosiy mezonlardan biridir.

Bugungi kunda transport infratuzilmasining iqtisodiyot uchun dolzarbligi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, globallashuv va mamlakatlar o'rtasida raqobat kuchayayotgan sharoitda yuqori sifatli va samarali transport tizimi investitsiyalarni jalb etish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Tegishli transport infratuzilmasi bo'lmasa, iqtisodiyot to'liq ishlamaydi.

Birinchidan, yuqori sifatli transport kommunikatsiyalarining yetishmasligi bozorlarga chiqishga to'sqinlik qiladi, bu esa xarajatlarning oshishiga va mahsulotning raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi. Bunga misol qilib olis qishloq hududini keltirish mumkin: bu yerda yo'llarning yo'qligi yoki yo'l qoplamasining yomonligi tufayli tovarlarni yetkazib berish narxi oshib, bozorda raqobatbardoshlik pasayadi.


Ikkinchidan, samarasiz transport tizimi migratsiya jarayonlarini sekinlashtiradi, ishchi kuchi harakatchanligini cheklaydi va resurslarni taqsimlashni murakkablashtiradi. Transport tarmog'i yetarlicha rivojlanmagan hududlar ko'pincha aholining chiqib ketishiga duch keladi, chunki odamlar qulayroq joylarda ishlash va yashash uchun yaxshiroq imkoniyatlarni izlaydilar.

Uchinchidan, transport muammolari investitsiyalarga to'siq bo'lib, ma'lum bir sohada investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Masalan, qurilish sohasida, xususan, zavod yoki logistika markazi barpo etishda investorlar bozorlar va xomashyo bazalariga tez va ishonchli kirishni ta'minlaydigan rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan hududlarni afzal ko'rishadi. O'z navbatida, avtomobil va temir yo'l tarmog'i yaxshi rivojlangan bunday hudud sarmoyani ko'proq jalb etishga qodir bo'lib, bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishiga va mahalliy byudjetga soliq tushumlarining oshishiga olib keladi.

Transport infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqishdan oldin, uning davlat ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'rnini aniqlash zarur. Transport infratuzilmasi moddiy-texnikaviy obyektlar majmui sifatida tushuniladigan keng tarqalgan sanoat yondashuvidan farqli o'laroq, ushbu ishda transport infratuzilmasi tashkiliy-iqtisodiy ochiq tizim sifatida qaraladi. U institutsional sharoitlarni belgilaydi va ular o'rtasidagi ijtimoiy tarmoq hamda transport xizmatlarini ta'minlaydi. Transport infratuzilmasining ikki tomonlama va tarmoqlararo



xususiyatini hisobga olgan holda, uning hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'ri va rolini, hamda transport xizmatlari ko'rsatishdagi o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda aniqlashga kompleks yondashuv maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (1-rasm).




1-rasm. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida transport infratuzilmasi

Iqtisodiy imkoniyatlar odamlar, tovarlar va ma'lumotlarning harakatchanligi bilan tobora bog'liq bo'lib, integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bilan transport infratuzilmasining miqdori va sifati hamda iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol namoyon bo'ladi. Yuqori zichlikdagi transport infratuzilmasi va tarmoqlari odatda hududiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi bilan bog'liq bo'ladi.

Transport tizimlari samarali bo'lsa, ular bozorlarga kengroq kirish, bandlikning ortishi va qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish kabi ijobiy multiplikativ effektlarga olib keladigan iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar hamda imtiyozlarni taqdim etadi. Aksincha, transport tizimlarining imkoniyatlari yoki ishonchligi yetarli bo'lmasa, bu holat kamaygan yoki boy berilgan imkoniyatlar, hayot sifatining pasayishi kabi iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarga olib kelishi mumkin.

Transport tizimining asosiy muammolarini mintaqa iqtisodiyotiga ta'siri nuqtai nazaridan baholashda turli omillarni hisobga olish zarur (2-rasm).



2-rasm. Transport infratuzilmasining rivojlanishi va uning hududiy iqtisodiyotga ta'siri



Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni transport infratuzilmasi orqali, ayniqsa cheklangan davlat investitsiyalari va moliyaviy imkoniyatlar sharoitida rag'batlantirish uchun bir nechta asosiy jihatlarni hisobga olish muhimdir. Transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslarni jalb etishning eng samarali mexanizmlaridan biri — bu davlat-xususiy sheriklik bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv infratuzilma obyektlarini davlat va xususiy investorlar tomonidan birgalikda moliyalashtirish, qurish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, chora-tadbirlardan biri sifatida transport infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan, shuningdek, qo'shimcha moliyalashtirish manbasiga aylanishi mumkin bo'lgan hududiy yoki tarmoq investitsiya fondlarini tashkil etishni taklif etamiz. Bunday mablag'lar soliq tushumlarining bir qismi yoki boshqa manbalar hisobidan shakllantirilishi mumkin. Shu bilan birga, eng katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo'lgan loyihalarga ustuvor e'tibor qaratish maqsadida joriy infratuzilma loyihalarini baholash, ularning muhimligini aniqlash va resurslarni ushbu loyihalarga qayta taqsimlash zarur hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda infratuzilmani rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslarni taqdim eta oladigan Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlardan grant va kreditlar olish imkoniyatini ham ko'rib chiqish muhim. Biroq ushbu mexanizmni samarali faollashtirish uchun geosiyosiy xatarlarni kamaytirish zarur, chunki aynan ushbu omillar xalqaro moliyaviy institutlar faoliyatining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

2025-yilda O'zbekistonda transport xizmatlari bozori o'sishda davom etmoqda. 2025-yil yanvar–may oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 70,7 trillion so'mni tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 14 foizga oshgan. Asosiy ulush Toshkent shahri, shuningdek, Samarqand va Toshkent viloyatlariga to'g'ri keladi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti ustunlik qiladi (taxminan 50 %), undan keyin havo, quvur, yordamchi va temir yo'l transporti turlari joy oladi.

Shuningdek, 2025-yil yanvar–may oylarida transport xizmatlari tuzilmasida avtomobil transporti xizmatlari 49,5 %, havo transporti 15,7 %, quvur transporti 13,8 %, yordamchi transport faoliyati 12,1 %, temir yo'l transporti esa 8,9 % ulushni tashkil etgan.

O'zbekistonni jahon hamjamiyatiga keng jalb etishda transport va transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladigan transport salohiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasini xalqaro transport yo'nalishlariga ulash, mamlakatimizning transport mustaqilligini ta'minlash va transport aloqalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan.

Mazkur dasturlarni amalga oshirishdan ko'zlangan pirovard maqsad — Yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo aylanmasining ma'lum qismini mamlakatimizdagi tranzit yo'nalishlariga yo'naltirish, shu asosda transport-tranzit xizmatlari hajmini oshirish, mavjud infratuzilma negizida logistika markazlarini tashkil etish va minglab aholini ish bilan ta'minlashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, ushbu yo'nalishdagi faoliyatni rivojlantirishda ichki transport tarmog'ining katta hajmdagi tranzit oqimini o'z vaqtida va to'liq ta'minlab bera olmasligi bilan bog'liq muammolar mavjud. Xususan, yuqori quvvatli transport infratuzilmasini, ayniqsa tezyurar yo'lovchi temir yo'llarini qurish bilan bog'liq loyihalarni puxta ishlab chiqish va takomillashtirish talab etiladi.

Shunday qilib, transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati — transportning qulayligi, sifati, ekologik tozaligi va xavfsizligi standartlariga muvofiq, mamlakat hududlari hamda butun dunyo o'rtasida ishonchli, prognoz qilinadigan ichki va xalqaro transport aloqalarini ta'minlaydigan yagona barqaror transport tizimini yaratishga qaratilgan global vazifani bajarishga xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlarining milliy bazasi, 2022-yil 29-yanvar, 22.06.60.0082-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Bracaglia V., D'Alfonso T., Nastasi A., Sheng D., Wan Y., Zhang A. High-speed rail networks, capacity investments and social welfare // Transportation Research. Part A, 2020. Vol. 132. P. 308–323.
3. Marti-Henneberg J. The influence of the railway network on territorial integration in Europe (1870–1950) // Journal of Transport Geography, 2017. Vol. 62. P. 160–171.
4. Бажина М.А. Содержательная трансформация понятия «транспортная инфраструктура» в условиях цифровизации // Юрист, 2022. № 10. – С. 55–61.
5. Бахтин М.Н. Транспортная инфраструктура региона: основные подходы к определению понятия // Регион: системы, экономика, управление, 2019. № 3(46). – С. 87–93.
6. Благинин В.А. Ретроспективный анализ научных взглядов на понятие «транспортная инфраструктура региона» // Фундаментальные исследования, 2016. № 11(5). – С. 979–984.



7. Боброва В.В., Бережная Л.Ю. Механизм влияния транспортной инфраструктуры на социально-экономическое развитие приграничного региона // Экономика, предпринимательство и право, 2021. № 10. – С. 2381–2398.
8. Кудрявцев А.М. Методическое обеспечение оценки эффективности развития автотранспортной инфраструктуры: диссертация ... кандидата экономических наук. – Тюмень, 2015. – 173 с.
9. Ильина Е.А. Оценка влияния развития транспортной сети на экономическое развитие региона // Ars Administrandi, 2013. № 2. – С. 91–97.
10. Гимади И.Э., Добродей В.В., Матушкина Н.А. Моделирование развития транспортного комплекса региона // Экономика региона, 2005. № 3. – С. 50–63.
11. Ефимова Е.Г. Роль транспорта в экономическом развитии региона: международный аспект // Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика, 2009. № 1. – С. 77–85.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>